

USTOZ SHOGIRD MUNOSABATLARI SHARQ MUTAFAKKIRLARI TALQINIDA

Maftuna Mo‘minova

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining ustoz shogird munosabatlarini qadriyat darajasida talqin qilganlari va bu qadriyatlar shogirdlar ilmiy-ijodiy ishlarida o‘z aksini topgani haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ustoz, shogird, munosabat, qadriyat, ijod, faoliyat, talqin, ziyoli, fazilat, kamolot.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается трактовка восточными мыслителями отношений учитель-ученик на уровне ценностей, а также то, как эти ценности отражаются в научной и творческой деятельности студентов.

Ключевые слова: учитель, ученик, отношение, ценность, творчество, деятельность, интерпретация, интеллект, добродетель, совершенство.

ABSTRACT

This article examines the interpretation of teacher-student relations by Eastern thinkers at the level of values, as well as how these values are reflected in the scientific and creative activities of students.

Keywords: teacher, student, attitude, value, creativity, activity, interpretation, intellectual, virtue, perfection.

KIRISH

Mutafakkir bobolarimiz asarlarida inson va uning ma'naviy olami jamiyat hayotining ustuvor amallari sifatida qaraladi. Sharq mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojiblarning qarashlarida odil jamiyat qurish haqidagi g'oyalarning shakllanishiga inson hayoti va kamolotidagi dastlabki ilmiy-falsafiy ko'rinishi turlicha talqin etiladi. Jumladan, "Forobiy milliy g'oya va mafkuraning asosiy manbalaridan bo'lgan qadriyatlar tizimiga kiruvchi – fozil davlat, adolatparvarlik, teng huquqlilik kabi fazilat va xususiyatlari haqidagi o'zining fikrlarini bildiradi"¹. Abu Nasr Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi, u boshqalar bilan aloqada bo'lishi, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi, deydi. Ana shu jarayonda ustozning ahamiyatini va

¹Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: G'afur G'ulom, 1993. – B. 160.

ushbu qatlamning insonda fazilatlarni kamol toptirishi haqida ta'kidlab quyidagi fikrlarni ilgari suradi, "Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi"². Abu Rayhon Beruniy inson tarbiyasiga salbiy ta'sir qiluvchi illatlar haqida fikr yuritib, ular ko'p hollarda yovuz niyatda qilinishini qayd etadi.

Sharq mutafakkiri Muhammad Muso Xorazmiy (783–850) shunday yozadi: "O'tmish davrlarda o'tgan olimlar fanning turli tarmoqlari sohasida asarlar yozish bilan o'zlaridan keyin keladiganlarni nazarda tutardilar. Ulardan biri o'zidan avvalgilaridan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketardi, uni o'zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi... o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishdan mag'rurlanmaydi"³.

Unga hamohang tarzda Ibn Sino esa bunday illatlarni bartaraf etishda murabbiy va tarbiya omiliga tayanishni ta'kidlaydi. Ibn Sino "Insonlar o'rtasida o'zaro kelishuv zarur bo'lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi. Qonunshunos esa bu qoidalarga bajarilishi shart bo'lgan majburiyat tusini beradi"⁴ deb hisoblaydi. Demak, "har qanday jamiyat, davlat ma'lum adolatni himoya etuvchi huquqiy qonunlar asosida idora etilishi, adolatsizlikka yo'l qo'ymasligi kerak va shundagina millat buyuklikka erishadi"⁵ degan fikrlarni ilgari suradi. Shunday ekan, ushbu diyonatli jamiyatni shakllantirishda millatning vijdoni bo'lgan ustozning hurmatini o'rniga qo'yish, ularga millatning oliy toifasi sifatida qarash adolatdan bo'ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sharq xalqlarida tarbiyaning o'ziga xos qoidalari mavjud. Ota-ona va farzand, ustoz va shogirdlar tarbiyasida bu yana-da aniqroq ko'rinadi. Bular bilan bog'liq mulohazalar badiiy, ayniqsa, sharq mumtoz adabiyotimiz namunalarida, didaktik adabiyotlarda ko'p bayon qilingan. Ushbu asarlarda ustoz va shogird tarbiyasi, talab va shartlari, burch-vazifalari, qoida hamda nizomlari turli shaklda ifodalangan. Tasavvufiy jihatdan ham bular bir necha atamalar bilan ifodalanadi: "Pir-murid", "pir-solik", "murshid-murid" va boshqalar⁶. Har bir tariqatda pir-u muridlikning ma'lum talablari, tartib-qoidalari mavjud bo'lgan. Masalan, professor Orif Usmon

²Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: Fan, 1972. – B. 68.

³Muhammad Muso Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – T.: Fan, 1983. – B. 49.

⁴Ibn Sino. Izb. Filos. Proizvedeniy. –M.: Nauka, 1980.– 478 s.

⁵Abu RayhonBeruniy. Tanlangan asarlar. I jild. – T.: Fan, 1968.– B.486.

⁶Qarang: Xo'jayev T. Ogahiyning "Guliston" asarida ustoz va shogird haqidagi mulohazalar talqini // "Ta'limda "ustoz-shogird" tizimi – sifat va samaradorlik kafolati". Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – N., 2020. – B. 17-19.

qayd etishicha yassaviya tariqatidagi solik 10 ta qoidani soʻzsiz bajarishga majbur boʻlgan⁷.

Ustoz va shogird qadriyati Sharq adabiyoti namoyondasi Saʼdiy Sheroziyning “Guliston” asarida ham alohida mavzu oʻlaroq oʻz ifodasini topgan. Saʼdiyning hayotiy tajribasi asosida yaratgan “Boʻston” (1257) va “Guliston” (1258) asarlari bunga misol boʻladi. “Guliston” odob-axloq, tarbiya, inson va hayot haqidagi oʻziga xos hikoyatlar hamda sheʼriy xulosa, hikmatlardan iborat asardir. Asar 8 bobdan tashkil topgan boʻlib, ularda podshohlar, darveshlar, ilm beruvchilar va oluvchilar, ilm ziynati, qanoat, sukut, ishq va yoshlik, zaiflik va keksalik, tarbiya taʼsiri va suhbat qoidalar haqida maʼlumotlar beriladi. Ayrim boblarda ustoz va shogirdlarga doir mulohazalar, hikoyatlar keltirilsa-da, asosiy fikrlar 7-bob – “Tarbiyaning taʼsiri bayoni”da berilgan. Asarning 1-bobi “Podshohlar odati bayoni”da deb nomlanadi. Voqealar jarayonida podshoh ham ishtirok etadi va baʼzi xulosalar chiqarishda muhim oʻrin tutadi. Hikoyatda keltirilishicha, bir kurashchi ustoz 360 kurash usulini bilardi. Bir shogirdidagi isteʼdodni bilib, unga 359 usulni oʻrgatdi. Bir usulni turli sabablar bilan oʻrgatmadi. Shogird kuchda ustozdan oʻtdi. Podshoh huzurida ustozni keksaligi va unga ustozlik qilgani, yoʻqsa undan qolishmasligini aytib, maqtanadi. Bu podshohga yoqmaydi (Podshohga shogirdning maqtangani, ustoziga hurmatsizlik qilgani maʼqul boʻlmaydi). Katta maydonda xalq yigʻiladi. Kurash boshlanadi. Ustoz shogirdi kuchli ekanligini bilardi. Ustoz oʻsha qolgan bir hiylani ishlatib, shogirdni koʻtarib uradi. Podshoh shogirdga tanbeh beradi. Ustoz esa, shu bir usulni bevafo shogirdlar uchun saqlab qoʻyganini aytadi⁸.

“Guliston”ning ikkinchi bobi “Darveshlar axloqi bayoni” deb ataladi. Undan anglashilganidek, asosiy hikoyatlar shayx, darvesh, xudojoʻy, pir, murid, faqihlar haqida. Bir hikoyatda pir va murid haqida gap boradi. Qiyin vaziyatga tushgan murid oʻz piridan maslahat soʻraydi. Pir unga yoʻl koʻrsatadi. Hikoyatda quyidagi voqea keltiriladi: Bir murid piriga odamlar uni koʻp bezovta qilayotgani, hadeb kelaverganliklari sababli, vaqti behuda ketayotganini aytadi. Pir buning chorasini aytadi. Kambagʻal kelsa qarz ber, boylaridan esa qarz soʻra, shunda ular uyingga kelmaydilar deydi⁹.

Sharq mumtoz adabiyoti manbalarini oʻqisak, tarbiya borasida turli fikrlarni uchratamiz. Mulohazalarga koʻra, inson tarbiyasi uning qaysi oilada tugʻilgani, otanasi, nasabiga bogʻliq emas. Tarbiya topgan muhiti muhim. Ikkinchi talqinga koʻra nasli buzuq, asli betayin kishini tarbiya qilishning foydasi yoʻq. U baribir asliga

⁷Qaran

g: Orif Usmon. Vahdat sharobin ichdim // Gʻoyiblar xaylidan yongan chiroqlar. – T.: Oʻzbekiston, 1994. – B. 140.

⁸Saʼdiy Sheroziy. Guliston. –T.: Gʻafur Gʻulom, 1968. –B. 56-58.

⁹Oʻsha asar. –T.: Gʻafur Gʻulom, 1968. –B. 86.

tortadi. “Guliston”ning 7-bobi – “Tarbiyaning ta’siri bayoni”da ham ana shu haqida soʻz boradi. Bobning birinchi hikoyatida keltirilishicha, bir vazirning takasaltang oʻgʻli bor edi. Vazir oʻgʻlini bir donishmandga tarbiya uchun beradi. “Shuni tarbiya qil, shoyad aqli kirib, odam boʻlsa” deydi. Ancha vaqt oʻtadi. Tarbiyaning foydasi boʻlmaydi. Donishmand vazirga oʻgʻli odam boʻlmagani, oʻzini aqldan ozdirganini xabar qiladi. Shoir she’riy xulosa qiladi: qobiliyat boʻlsa, tarbiya ta’sir qilishini, qancha urinsa ham temir javhar boʻlmasligi, Iso eshagi Makkaga borib kelsa ham eshakligicha qolishini aytadi. Yana bir hikoyatda podshoh oʻgʻlini murabbiyga topshirib, oʻz farzandingday tarbiyala, deydi. Murabbiy uni bir necha yil tirishqoqlik bilan oʻqitadi. Oʻz farzandlari ilm-fan, odob-axloqda barkamol boʻladilar. Podshohning bolasi odam boʻlmaydi. Podshoh murabbiyni ahdni buzganlikda ayblaydi. Murabbiy esa tarbiya bir xil boʻlgani, ammo tabiatlari har xil ekanligini aytadi¹⁰. Bugungi kunda uchrab turadigan, ta’sirning yaxshi bir usuli bayon qilingan. Ba’zan vazifani, biror topshiriqni, aytilgan ishni koʻpchilik bajarmagan boʻlsa avvalo, oʻz farzandlarimiz, yaqinlarimiz yoki nufuzi baland rahbar, amaldor, puldorning bolasini jazolaymiz. Bu boshqalarga ibrat boʻladi yoki ta’sirliroq boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Gʻafur Gʻulom, 1993.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: Fan, 1972.
3. Muhammad Muso Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – T.: Fan, 1983.
4. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I jild. – T.: Fan, 1968.
5. Xoʻjayev T. Ogahiyning “Guliston” asarida ustoz va shogird haqidagi mulohazalar talqini // “Ta’limda “ustoz-shogird” tizimi – sifat va samaradorlik kafolati”. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – N., 2020. Orif Usmon. Vahdat sharobin ichdim // Gʻoyiblar xaylidan yongan chiroqlar. – T.: Oʻzbekiston, 1994. – B. 140.
6. Sa’diy Sheroziy. Guliston. –T.: Gʻafur Gʻulom, 1968.
7. Sa’diy Sheroziy. Guliston. –T.: Gʻafur Gʻulom, 1968.

¹⁰Sa’diy Sheroziy. Guliston. –T.: Gʻafur Gʻulom, 1968. –B. 148-149.